

## CHIKAGO MAKTABINING SOTSILOGIYA TARIXIDA TUTGAN O'RNI

**Raximova Nozima**

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

sotsiologiya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Chicago School ning sotsiologiya tarixida tutgan o'rni, uning shakllanish jarayoni hamda asosiy ilmiy g'oyalari tahlil qilinadi. Maqolada Chikago maktabi vakillarining urbanizatsiya, migratsiya, ijtimoiy ekologiya va simvolik interaksionizm sohalaridagi ilmiy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu maktabning empirik tadqiqot usullarini rivojlantirishdagi hissasi va zamonaviy sotsiologiya taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Chikago maktabi sotsiologiyani amaliy va ilmiy asoslangan fan sifatida rivojlantirishda muhim o'rin egallagani xulosa qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sotsiologiya, Chikago maktabi, urbanizatsiya, ijtimoiy ekologiya, simvolik interaksionizm, empirik tadqiqot, migratsiya.

**Annotation** This article analyzes the role of the Chicago School in the history of sociology, its formation process, and its main scientific ideas. The article highlights the scientific views of the representatives of the Chicago School in the fields of urbanization, migration, social ecology, and symbolic interactionism. It also explains the contribution of this school to the development of empirical research methods and its influence on the progress of modern sociology. The study concludes that the Chicago School played an important role in developing sociology as a practical and scientifically grounded discipline.

**Keywords:** sociology, Chicago School, urbanization, social ecology, symbolic interactionism, empirical research, migration.

**Kirish** Sotsiologiya fanining rivojlanishida Chicago School alohida o‘rin egallaydi. XX asr boshlarida Chicago shahrida shakllangan ushbu ilmiy yo‘nalish jamiyatni empirik tadqiqotlar asosida o‘rganishga katta hissa qo‘shdi. Chikago maktabi nafaqat nazariy qarashlari, balki amaliy tadqiqot usullari bilan ham sotsiologiya tarixida muhim bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, urbanizatsiya, migratsiya, jinoyatchilik, ijtimoiy muhit va shaxs xulq-atvori masalalarini chuqur tahlil qilgani bilan ajralib turadi.

### **Chikago maktabining shakllanishi**

Chikago maktabi XX asrning 1910–1930-yillarida University of Chicago qoshida faoliyat yuritgan sotsiolog olimlar guruhi tomonidan shakllantirildi. Ushbu maktabning asosiy vakillari orasida Robert Ezra Park, Ernest Burgess, William I. Thomas va Florian Znaniecki kabi olimlar bor edi.

Bu davrda Chikago shahri sanoatlashuv va migratsiya sababli tez sur‘atlarda rivojlanayotgan edi. Natijada aholining ko‘payishi, etnik guruhlarining aralashuvi, jinoyatchilik va kambag‘allik kabi ijtimoiy muammolar paydo bo‘ldi. Chikago maktabi vakillari ana shu muammolarni bevosita shahar hayotini kuzatish orqali o‘rganishga kirishdilar.

### **Asosiy g‘oyalari va yondashuvlari**

Chikago maktabining asosiy xususiyati — empirik tadqiqotlarga katta e‘tibor berishidir. Ular nazariy mulohazalardan ko‘ra, real hayotni kuzatish va ma‘lumot to‘plashni ustun qo‘ydilar. Tadqiqotchilar intervyu, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish va statistik ma‘lumotlardan foydalanish orqali jamiyatni o‘rgandilar.

yo‘nalishlaridan biri “ijtimoiy ekologiya” Maktabning muhim nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shahar hududlari tabiiy muhit kabi rivojlanadi va ijtimoiy guruhlar ma‘lum hududlarda joylashadi. Ernest Burgess tomonidan ishlab chiqilgan qarab bosqichma-bosqich rivojlanishini tushuntirib berdi.

Chikago maktabi konsentrik zonalar modeli shaharning markazdan tashqariga shuningdek, “simvolik interaksionizm” yo‘nalishining rivojlanishiga ham asos soldi. Bu yondashuv insonlarning kundalik muloqoti va ramzlar orqali jamiyat shakllanishini tushuntiradi. Ushbu g‘oya keyinchalik zamonaviy sotsiologiyada keng qo‘llanila boshlandi.

### **Sotsiologiya faniga qo‘shgan hissasi**

Chikago maktabining eng katta xizmatlaridan biri — sotsiologiyani amaliy va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan fan darajasiga olib chiqishidir. Ular “dala tadqiqoti” usulini rivojlantirib, sotsiologlarni jamiyat ichiga kirib tadqiqot olib borishga undadilar.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, Chicago School sotsiologiya tarixida muhim ilmiy maktablardan biri hisoblanadi. U jamiyatni empirik usullar orqali o‘rganish, shahar hayotini tahlil qilish va zamonaviy sotsiologik metodlarni shakllantirishda katta rol o‘ynadi. Chikago maktabining ilmiy merosi bugungi kunda ham urban sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va madaniyat tadqiqotlarida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.